

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| D.A.Ganiyeva | |
| O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi | 6 |
| G.S.Mirzayeva | |
| Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida | 10 |
| S.N.Fazildinova | |
| The use of hyperbole in Alisher Navoi's works | 14 |
| Sh.T.Axmadjonova | |
| O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini | 17 |
| D.S.Usmonova | |
| Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language | 20 |
| D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova | |
| Gender features of children's animation and emerging translation challenges | 24 |
| N.R.Maxmudova | |
| O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida | 28 |
| M.Saminjonov | |
| Rasmiy-jamoaviy qasamlar | 31 |
| I.M.Jo'rayev | |
| Qadimiy qadriyatlar | 37 |
| D.R.Ubaydullayeva | |
| Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlarini qiyosiy tadqiqi | 41 |
| N.Q.Adamboeva | |
| Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari | 49 |
| Z.M.Dadahonova | |
| Components of knowledge control | 53 |
| L.Teshebayeva | |
| O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar | 56 |
| Ш.М.Артикова | |
| Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма | 60 |
| M.M.Nurmatova | |
| Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida | 66 |
| S.I.Quziyev | |
| Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari | 70 |
| T.Z.Ismonova | |
| Problems and solutions of grammar translation method | 76 |
| N.A.Komilova | |
| Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari | 80 |
| D.X.Madazizova | |
| The significance of text and discourse in enhancing communicative competence | 83 |
| S.A.Yusupova | |
| Morphemic units expressing honour in different system languages | 86 |
| N.Sidikova | |
| Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri | 91 |
| Sh.X.Nuritdinova | |
| Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi | 94 |
| N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva | |
| Semantic analysis of english phrasal verbs | 98 |
| B.A.Mukhtorova | |
| The "Concept" in linguistics | 102 |
| R.A.Ortiqov | |
| Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili | 106 |
| Sh.O.Abdiloyev | |
| Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi | 110 |

ZOONIM FRAZEOLOGIZMLAR XALQ TARIXI VA MADANIYATI IN'IKOSI

ZOONYM PHRASEOLOGIST'S VIEW OF PEOPLE'S HISTORY AND CULTURE

ЗООНИМНЫЕ ФРАЗЕОЛОГИ ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ И КУЛЬТУРУ НАРОДА

Abdiloyev Shavkatjon Oxonjonovich¹¹Farg'ona davlat universiteti, chet tili fakulteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

Tarixni o'rganishda uzoq o'tmishdan guvohlik beruvchi turli vositalar—tarixiy asarlar, yodgorliklar, obidalar, xalq afsonalari, bitik toshlari, uy-ruzg'or buyumlari tarixiy ashyoviy dalillar sifatida qo'llanadi. Shunday omillardan biri bu hayvon tasviridagi g'or rasmlari hisoblanadi. Ma'lum bir xalqning tarixiy hayotini o'rganish, uning qadimiy turmush tarzi, faoliyati, dunyoqarashi, psixologiyasini o'rganishda g'or rasmlari muhim rol o'ynaydi.

Uy va yovvoyi hayvonlar insoniyat tarixida mehnat vositasi, inson yordamchisi va qo'riqchisi, tirikchilik mahsuloti, uni turli mahsulotlar bilan ta'minlovchi omlillar bo'lishi bilan birga, xalq o'tmishi, tarixi, madaniyati va turmush tarzidan ham darak beruvchi vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolada hayvonlarning dunyo tarixi va madaniyatida qanday ramziy ma'no ifodalaniishi, turli xalqlarning tarixidan darak beruvchi afsonalari, g'or rasmlari, milliy urf-odat va an'analari misolida yoritib beriladi. Turli ilmiy qarashlar va dalillarga asoslangan holda keltirilgan ma'lumotlarda real hayotdagi haqiqiy hayvonlar va inson tasavvuridagi mifologik hayvonlar azaldan odamlarning ongi va turmush tarziga chuqur kirib ketganiga guvoh bo'lamiz. Darhaqiqat, turli xalqlar milliy valyutasida va qadimgi tangalarda zarb etilgan, qadimgi obidalar peshtoqlarida, g'orlar ichidagi hayvon tasvirlari, diniy qarashlar va xalq mifologiyasidagi hayvonlar obrazi ma'lum bir tarixdan so'zlaydi.

Аннотация

При изучении истории в качестве исторических вещественных доказательств используются различные инструменты, свидетельствующие о далеком прошлом, - исторические произведения, памятники, памятники, народные предания, камни-надписи, предметы быта. Одним из таких факторов являются наскальные рисунки животных. Наскальные рисунки играют важную роль в изучении исторической жизни определенного народа, его древнего быта, деятельности, мировоззрения и психологии.

В истории человечества домашние и дикие животные являются орудиями труда, помощниками и защитниками людей, продуктами жизнедеятельности, факторами, обеспечивающими их различными продуктами, а также являются средством обозначения прошлого, истории, культуры и образа жизни народа.

В данной статье описано символическое значение животных в истории и культуре мира, а также легенды, наскальные рисунки, национальные обычаи и традиции разных народов. В представленной информации, основанной на различных научных взглядах и доказательствах, мы видим, что настоящие животные в реальной жизни и мифологические животные в воображении человека глубоко проникли в сознание и образ жизни людей с незапамятных времен. В действительности, изображения животных, отчеканенные на национальной валюте и старинных монетах разных народов, на фасадах древних памятников, в пещерах, изображение животных в религиозных воззрениях и народной мифологии говорят об определенной истории.

Abstract

In the study of history, various tools testifying to the distant past - historical works, monuments, monuments, folk legends, inscription stones, household items - are used as historical physical evidence. One such factor is the cave paintings of animals. Cave paintings play an important role in studying the historical life of a certain nation, its ancient way of life, activities, worldview, and psychology.

In the history of mankind, domestic and wild animals are tools of labor, helpers and protectors of people, livelihood products, factors that provide them with various products, and are also a means of indicating the past, history, culture and lifestyle of the people.

This article describes the symbolic meaning of animals in the history and culture of the world, as well as legends, cave paintings, national customs and traditions of different peoples. In the information presented based on various scientific views and evidence, we can see that real animals in real life and mythological animals in human imagination have deeply penetrated the minds and lifestyles of people since time immemorial. In fact, the images of animals minted on the national currency and ancient coins of different nations, on the facades of ancient monuments, in caves, and the image of animals in religious views and folk mythology speak of a certain history.

Kalit so'zlar: ramz, urf-odatlar, ramz, g'or rasmlari, mif, it, ot, sher, Pegasus, Daxlsiz hayvon, Shu, Sexmet, ma'buda, mifologiya.

Ключевые слова: символ, традиции, символ, наскальные рисунки, миф, собака, лошадь, лев, Пегас, Неприкасаемое животное, Шу, Сехмет, богиня, мифология.

Key words: symbol, traditions, symbol, cave paintings, myth, dog, horse, lion, Pegasus, Untouchable animal, Shu, Sekhmet, goddess, mythology.

KIRISH

Ramz so'zi qadimgi grek tilidan symbállein so'zidan olingan bo'lib, (yun. symbolon — belgi, ramz), alomat, timsol ma'nolarini bildiradi.

Ramzlarni barcha dunyo madaniyatida uchrashimiz mumkin, chunki ular tasavvur qilinadigan barcha shakllarda—matnlar, qo'shiqlar, chizmalar, imo-ishoralar, marosimlar va urf-odatlar shakllarda namoyon bo'lib, asosan miflar va afsonalar o'z aksini topgan. Ramz tushunchasiga belgi sifatida ham, narsa sifatida xam qarash mumkin. Masalan, € belgisi Yevropa Ittifoqligining valyutasini ifodalash bilan birga xristianlik xochi ramzi ham hisoblanadi. Belgilar va ramzlar bilan bog'liq ta'limot semiotika deyiladi.

Dastlabki ramzlar sifatida uzoq o'tmishdan darak beruvchi, oldingi davr hayotini tasvirlovchi g'ordagi rasmlar, jumladan hayvon rasmlarini ko'rishimiz mumkin. Yuqori paleolit davrlariga mansub eng mashhur rasmlar hozirgacha Yevropada saflanib qolgan. Masalan, Fransiyadagi Lasko g'ori, Ispaniyadagi Altamir g'ori va Afrikadagi neolit davri [1; 278]. G'or rasmlari ko'pincha g'orlarning eng chuqur, quyosh nuri tushmaydigan joylarida tasvirlangan. Tarixdagi odamlar o'z g'orlarini muqaddas joy sifatida saqlashgan [2; 17]. G'or rasmlarining ma'nosiga bugungi kungacha aniq izoh berilmagan. Mutaxassislar rasmlar haqiqiy real hayotni ifodalanishi yoki shunchaki ibtidoiy odamlar boshidan kechirgan galyusinatsiyami hozirgacha izohlay ololmayptilar [3;20]. G'or rasmlari mazmunini izohlash bo'yicha turlicha nazariyalar mavjud. Ba'zi olimlar ular haqiqiy real hayotni tasvirlashlarini iddao qilishsa, ikkinchi guruh ular sehrgarlik qobiliyatga ega ekanliklari yoki din bilan bog'liq ekanligini izohlaydilar. Qanday bo'lmasin, rasmlarniing eng keng tarqalgan mavzulari hayvonlardir. Hayvonlardan, ayniqsa, buqalar, otlar, echkilar, kiyiklar, mamontlar, she'rlar va itlar ko'p uchraydi. Ba'zi rasmlar aralash mavjudotni ham ifodalaydi, masalan, shoxli tanali odam; bu gibrud mavjudotlar, ehtimol xudolar yoki shamanlar bo'lishi mumkin [4;121]. Hayvonlarning tasvirlarini ibtidoiy odamning ichki ruhiy dunyosiga sayohat sifatida qarash mumkin. Haqiqatga yaqin deb qabul qilinadigan g'oya shuki, g'or rasmlari hayvonlar va insonlar o'rtasidagi bog'liqlikni bildirib, insonlar bu hayvonlarga sig'inishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

It vafodorlik, do'stlik va himoya ramzi hisoblanadi. Shunga qaramay, itlar ba'zi madaniyatlarda o'lim, yer osti va ruhiy dunyo bilan bog'liq ramz hisoblanadi. Misol tariqasida, it ruhlarning borligini his qilishiga ishongan Yaponiyaning sobiq aholisini olishimiz mumkin [4;121]. Inklar agar itlar akillasa, xonadon a'zolaridan kimnidir o'limini anglatadi, deb ishonishgan [4;122]. Mayyaada itlar o'z xo'jayinlarini yer osti olamiga hamrohlik qilishlik qobiliyatiga ega bo'lganliklari uchun ularni xo'jayinlari bilan birga dafn etishgan [5;12]. Osiyoliklar ruhlar yer osti olamiga tezroq kirib borishi uchun itlarni inson jasadida oziqlantirganlar [5;74].

Hozirgi kunda it deyarli butun dunyoda uy hayvoni va inson do'sti hisoblanadi, odamlar itlardan podalarni qo'riqlash, yuk aravalarini tashish kabi ishlarda ish kuchi sifatida foydalanadilar. Itlar polisiya ishlarida ham, masalan giyohvand moddalar, bomba yoki qidirilayotgan odamlarni topishda qulay yordamchi hisoblanadilar. Bundan tashqari, itlarni tibbiyot sohasida ham uchrash mumkin. Turli ijtimoiy institutlarda it terapeyasi (kanis terapeya) o'tkaziladi. Ko'p hollarda itlar jismoniy yoki aqliy nuqsoni bo'lgan insonlar uchun yordamchi yoki yo'lboshchi bo'lib xizmat qiladi.

QADIM VA ANTIK DAVRDA SIMVOLIZM

Yunon mifologiyasi:

- Gekate—dunyolar orasidagi darvozalar qo'riqchisi, seyr-jodu ma'budasi.
- Kerberos—yer osti dunyosiga kirishni qo'riqlovchi uch boshli it
- Ortos—Kerberosning ukasi, azimjussa Evritonning suruvlarini qo'riqlovchi ikki boshli it .

Afsonalarga ko'ra Gerakl Ortos va Geryonni o'ldiradi:

- Artemida (Rim mifologiyasidagi Dianaga teng)—o'rmonni qo'riqlovchi ov ma'budi, ov iti
- Artemida sevib qolgan afsonaviy ovchi Orionga tegishli ikki it . Orionning o'limidan so'ng unga tegishli itlarga Artemida egalik qiladi, Orionni o'ldirgan Chayon esa burj bo'lib, osmonga ko'tariladi. Bugungi kunda ham astronomiyada "Uch yulduz" burji mavjud.

Qadimgi Misrda:

- Anubis yoki Anup—dafn qilish va mumiyolash xudosi it yoki shoqolning boshi bilan tasvirlangan.

German mifologiyasida faqat Hel ma'budasiga tegishli Garm haqida gapiriladi, u yer osti dunyosini qo'riqlaydi.

OT

Ot—kuch-qudrat, mustaqillik va erkinlik ramzi hisoblanadi. Ilgari otlar quyosh xudolari bilan bog'langan. Rivoyatlarga ko'ra, bu hayvon shamol, olov, buron, suv va to'lqinlarning kuchini ifodalaydi. Qora otlar o'lim ramzi, oq otlar yorug'lik, hayot va din ramzi hisoblangan. Mug'ulistondagi shamanlar uchun otlar transport vositasi, shuningdek ruhlarni yer ostiga olib ketadigan ramz hisoblangan.

Bugungi kunda odamlar otlardan dam olish vositasi sifatida ham foydalanadilar. Suvoriyning ot minib ketishi, darhaqiqat, dunyodagi go'zal manzaralaridan biri hisoblanadi. Ot poygasi bugungi kungacha saqlanib qolgan dunyodagi eng nufuzli sport turlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda otlar nafaqat dam olish va sport turlarida, balki tibbiyotda ham mashhur davolash turlaridan hisoblanadi.

Yunon mifologiyasi:

- Troyan otlari, ichiga yunon askarlari yashiringan yog'ochdan yasalgan katta ot. Shu g'oya tufayli yunonlar troyanlarni Troya jangida mag'lub etdilar.

- Kentavrlar umumiy figuralardir. Bu jonzorlar ot va odamdan iborat bo'lgan duragaylar hisoblanishadi. Rivoyatlarda keltirilishicha, ular haddan tashqari vahshiy va rahmsiz, lekin shu bilan birga juda dono ekanlar. Masalan, Cheyron (Axillesning ustoz).

- Yunon mifologiyasining yana bir mashhur qahramoni Poseydon va Meduzaning o'g'li, oq muynali qanotli ot Pegasus hisoblanadi. Afsonalarga ko'ra uning oyoqlari yerga tekkanda, yerdan suvlar sachraydi. Agar kimdir shu suvni ichsa, unda ajoyib shoirlik qobiliyati paydo bo'ladi, shuning uchun ham Pegasus she'riyat ramzi hisoblanadi. "Pegasusga mining" idiomasi ham aynan shu tarixga bog'liqdir. Xristianlikda Iso Masihning bir shoxli afsonaviy jonivorini uchratishimiz mumkin. Shuningdek, bir shoxli bu afsonaviy jonivor Shotlandiya gerbida ham o'z aksini topgan.

Germaniya mifologiyasida Alsvidr, Arvavr, Gullfari, Xrimfaksi va Skinfksi kabi nomlar ham ko'p tilga olinadi.

MUHOKAMA

Sherlar oltin mo'ynaga va podshohlik martabaga ega bo'lganligi tufayli bevosita quyosh va hayot bilan bog'lanadi va kuch, qudrat, jasorat va g'alaba ramzi hisoblanishadi. Afrika qirollari va Qadimgi Misrdagi firavnlarni sher qiyofasida tasvirlangan. Xristianlikda sher Masihni ham ifodalaydi: "Mana, yahudo qabilasi Dovudning ildizi bo'lgan sher. U bu kitobni ochishi va uning yetti muhrini sindirishga qodir" (Otk.5:5). Qadimgi Misr va yunon mifologiyasida sher yer osti dunyosi qo'riqchisi sifatida gavdalanadi. Shuningdek, sherlar qabr toshlariga ham o'yilgan. Bugungi kunda sherlar asosan Hindiston va Afrika yovvoyi tabiat dunyosida yashaydilar. Ularning soni kiyiklarni ov qilish hisobidan kundan kunga kamayib bormoqda. Shuningdek, bugungi kunda bu hayvon turini sovg'a sifatida foydalanishmoqda. Biz sherlarni hayvonlar shohi deb hisoblaymiz, shunga qaramay ularni deyarli barcha hayvonot bog'larida uchraymiz, ular bizning o'yin-kulgumiz uchun sirkalarda namoyish ko'rsatishadi. Sher tasvirlarini davlat gerblari va tangalarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Chexiya Respublikasining tangalari va Samarqand shahridagi Sherdor madrasasi peshtoqida sher rasmi tasvirlangan.

XULOSA

Yunon mifologiyasi:

- Daxlsiz hayvon—Nemaysher sheri. Uning o'ldirishi Geraklning shoh Evristfeydan olgan birinchi vazifasi edi. Uning o'limidan so'ng sher osmondagi burjlardan birining nomiga aylandi.

- Yunon mifologiyasida gibril hayvon—sherni mavjud ekanligi ()Masalan, Grayf va Ximer).

Qadimgi Misr:

- Havo xudosi Shu va uning singlisi Tefnut sher boshi bilan tasvirlangan.

- Sexmet— sherning boshi bilan tasvirlangan urush ma'budasi, shuningdek, kasalliklardan shifo beruvchi ma'buda.

- Firavnlarni ham sfinks sifatida tasvirlangan. Masalan, Gizaning buyuk sfinksi sher tanasi va inson boshidan iborat.

- Dedven yoki Dedun—boylik xudosi, sher xudosi Maher, arslon ma'budalari Menhit, Mehit va Mestjet ham sher boshlari bilan tasvirlangan.

Mantiqan, nemis mifologiyasida sherlar haqida hech qanday eslatma yo'q. Extimol, sherlar nemislar yashaydigan hududda yashashmagan va ular sherlarning mavjudligi haqida bilmagan bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. LEWIS-WILLIAMS, J. David. Mysl v jeskyni: vědomí a původ umění. Praha: Academia, 2007. Galileo, S.278
2. SVOBODA, Jiří A. Počátky umění. Praha: Academia, 2011, S. 17
3. SVOBODA, 2011, S. 20
4. vgl. O'CONNELL, AIREY, 2008, S. 121
5. vgl. SAUNDERS, Nicholas J. Mytická síla zvířat. Praha: Knižní klub, 1996. Magie, tradice, současnost, S. 74
6. Доминика Крежкова. Phraseologie und Tiersymbolik. Dargestellt an Phrasemen mit den Komponenten Hund, Pferd und Löwe im Deutschen und Tschechischen. Брюн-2018.
7. DONALIES, Elke. Basiswissen Deutsche Phraseologie. Tübingen: A. Francke, 2009. 126 s. ISBN 9783825231934.